



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERIDA AGROKONSALTING XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Kudratova Iroda

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali

ORCID: 0009-0004-7200-8922

irodakudratova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida mahalliy darajada dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik yo'nalishlarida konsalting xizmatlari ko'rsatish va tajribalar benchmarkingini yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishining mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda samaradorlikni ham oshirish maqsadida ilg'or bilimlarni ishlab chiqarishga joriy etishni ko'zda tutuvchi agrokonsalting xizmatlarini ko'rsatish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik klasteri, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, chorvachilik, tajribalar benchmarking, agrokonsalting.

ПЕРСПЕКТИВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РАЗВИТИЯ АГРОКОНСАЛТИНГОВЫЕ УСЛУГИ В ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНОМ КЛАСТЕРЕ

Кудратова Ирода

Самаркандский филиал Ташкентского

государственного экономического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы предоставления агроконсультационных услуг в направлениях сельского хозяйства, животноводства и садоводства в хлопково-текстильных кластерах, внедрения передовых знаний в производство с целью также повышения эффективности по местной особенности производства сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: хлопково-текстильный кластер, фермерская хозяйства, деҳқанское хозяйство, животноводство, бенчмаркинг, агроконсалтинг.

A PROMISING DIRECTION OF DEVELOPMENT AGRICULTURAL CONSULTING SERVICES IN THE COTTON-TEXTILE CLUSTER

Kudratova Iroda

Samarkand branch of the Tashkent State

University of Economics

Annotation. The article discusses the issues of providing agro-consulting services in the areas of agriculture, animal husbandry and horticulture in cotton and textile clusters, the introduction of advanced knowledge into production in order to also increase efficiency according to the local characteristics of agricultural production.

Keywords: cotton and textile cluster, farming, rural economy, livestock, benchmarking, agroconsulting.

Kirish.

Bozor munosabatlarining qaror topishi bilan milliy iqtisodiyotning agrar tarmog'ida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Qishloq xo'jaligi yerlarining qariyb 62 foizi xususiy mulkka asoslandi, qishloq xo'jaligi korxonalari mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasida yangicha iqtisodiy munosabatlari shakllandi (Фармон, 2023).

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida mulkchilikning asosiy tashkiliy-huquqiy shakli dehqon-fermer xo'jaliklari, shuningdek hisoblanadi. Biroq, ushbu fermer xo'jaliklarining agrar ishlab chiqarishdagi sezilarli ulushiga qaramay, ularning iqtisodiy faoliyati samaradorligi qator tashkiliy, agrotexnik, agrokimyoviy va agrobiologik, tadbirkorlik sohalaridagi muammolar tufayli pastligicha qolmoqda. Shu tufayli aholining ekologik xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat va yengil sanoatni tarmoqlari uchun paxta xomashyosini yetishtirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan yangi tuzilmalarni, shu jumladan agrokonsalting axborot tuzilmalarini yaratish zarurati tobora oshib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida agrokonsalting xizmatlari "...qishloq xo'jaligida iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy vositalaridan biri hisoblanadi. Agrokonsalting avvalo qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga sohaviy maslahatlar berishga qaratiladi. Shu bilan birga agrokonsalting qishloq joylarni rivojlantirishga qaratilgan malakali axborot-maslahat xizmati hamdir" sifatida izohlangan (Tamuliene, Vilma va boshq, 2017). Agrokonsalting "...fermer xo'jaliklariga mavjud resurslardan samarali foydalanish bo'yicha zaruriy bilim, malaka va ish tajribalar haqida ma'lumotlar berish, zarur hollarda o'rgatish xizmati" ni ifodalaydi (Mitskevich va boshq, 1999). Shu bilan birgalikda manbalarda agrokonsalting tushunchasi qishloq xo'jaligi sohasida konsalting sifatida izohlanib, "...qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va qishloq aholisiga tavsiyaviy harakterga ega bo'lgan yoki qisman ko'maklashishni ko'zda tutuvchi, shu bilan birga yangi imkoniyatlarni joriy etish, qo'llash, o'zgarishlarga moslashish yo'nalishidagi axborot-maslahat xizmatlarini o'z ichiga olishi" keltirilgan (Demishkevich, 2009).

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan ilmiy ishlarida mazkur yo'nalishidagi tadqiqotlar qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma sifatida "... bevosita va bilvosita qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchilarga (qayta ishlash korxonalariga, aholiga) yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarda shart-sharoitlarni ta'minlovchi xizmatlar majmuidan iborat" ekanligi (Hamrayeva, 2019), shuningdek agroxiizmat sifatida "... moliyaviy resurslar manbalariga ega bo'lgan, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, texnika va jihozlarni ta'mirlash, ilmiy asoslangan o'g'itlash asosida hosildorlikni va zooveterinariya tadbirlarini amalga oshirish orqali chorva mollari zotini yaxshilash, ularning mahsuldorligini oshirishga qaratilgan hamda mahsulot qiymatini va uning samaradorligini oshiradigan, shuningdek, axborot ta'minoti va konsalting hamda sug'urta va reklama xizmatini o'z ichiga oladigan qishloq ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari ko'rsatayotgan xizmatlar majmui" nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan (Ibragimov, 2023).

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlarda agrokonsalting xizmatlarini ko'rsatish masalalari tizimli yondashuv asosida o'rganilmaganligi bu borada tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasi paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini texnik-texnologik innovatsiyalarni joriy yetish va tegishli axborot bazasini shakllantirish

sohaga oid ilg'or bilimlarni ishlab chiqarishga joriy etishni ko'zda tutuvchi agrokonsalting xizmatlarini ko'rsatish orqali oshirish mumkinligiga asoslanadi

Tahlillar va natijalar muhokamasi.

Xorijda agrokonsalting xizmatlarini ko'rsatish asosan xususiy sektorga taalluqli bo'lib, aynan bir yo'nalish yoki texnik xizmatlar ko'rsatishga chuqur ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Bu asosan "...irrigatsiya va tuproq unumdorligini saqlab qolish, qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasi va ekinlarni joylashtirishning global tizimlari(GPS, GLONASS)ni qo'llashga qaratilgan" (Bergamaschi, 2012). Biroq, so'nggi yillarda kabi agrokonsalting xizmatlari ko'rsatishning iqtisodiy faoliyat turiga aylanib ulguraganligi, ushbu sub'ektlar o'rtasida uzviy bog'liqligining yo'qligi tufayli berilayotgan maslahat va tavsiyalar qishloq xo'jaligi muammolarini hal qilishda jiddiy xatoliklarga olib kelayotganligini ham e'tiborga olish zarurdir. O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasi amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda aksariyat "...mayda kichik dehqon xo'jaliklarida dehqon (fermer) xo'jaliklari, birinchi navbatda, asosiy qishloq xo'jaligi resurslari hisoblangan yer, ishchi kuchi, moddiy-texnik baza va shu kabilarning yetarlicha samara bilan foydalanilmasligi" (Azizkulov, 2019) tufayli dehqonchilikning samarali tashkiliy shaklga aylanishiga to'sqinlik qilmoqda. Buning natijasida mayda fermer xo'jaliklarida kichik ishlab chiqarishni samarali tashkil etish murakkabligicha qolmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz paxtachilik sohasida ham allaqachon bozor mexanizmi shakllandi, fermer xo'jaliklari o'zini o'zi moliyalashtirishi, yetishtirilgan paxta xomashyosini mustaqil tasarruf etish imkoniyatlari kengaydi. Integratsiyalashuvning kichik darajasi bo'lgan yangi xo'jalik yuritish tizimi sifatida paxta xomashyosini yetishtirish va tayyor mahsulotga aylantirish borasida shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha koxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratish hamda mavjud mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashdek muhim jihatni o'zida namoyon etadigan paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil qilindi. Paxta xomashyosi ishlab chiqaruvchilar va paxta-to'qimachilik klasterlari o'rtasidagi munosabatlar yangicha shaklda yo'lga qo'yish, Paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar o'rtasida xomashyo yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining "paxta xomashyosi seksiyasi"da har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolar natijalariga ko'ra tuzish asosida joriy yilgi hosil mavsumidan boshlab paxta xomashyosi ishlab chiqaruvchilar va paxta-to'qimachilik klasterlari o'rtasidagi munosabatlarni yangicha shaklda yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi.

So'nggi yillarda paxta-to'qimachilik klasterlarining faoliyatida ilmiy, bozor va texnologik ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan zamonaviy dehqonchilik usullarini qo'llash, chorva komplekslarida zamonaviy veterinariya, naslchilik, zootexniya yo'nalishidagi agrokonsalting xizmatiga bo'lgan ehtiyojini qondirishga ahamiyat berilmoqda. agrokonsalting xizmatlarining shakllanishi va uning agrar soha samaradorligiga ijobiy ta'siri iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan, tizimli amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli emas, aksariyat hollarda qisqa muddatga mo'ljallangan grantlar va startap-loyihalar shaklida amalga oshirilgan. Ushbu masalaning o'ta jiddiyligi shundan iboratki, bugungi kunda qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy yetish, boshqa turdagi xizmatlardan foydalanishni klaster yondashuvimiz tasavvur qilish qiyin (Xoliqova, 2022), shu bilan birga uning tarkibidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga doimiy ravishda agrokonsalting xizmatlari ko'rsatishi shart hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, paxta-to'qimachilik klasterlarida paxtachilik xo'jaliklarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, paxta xomashyosini yetishtirish samaradorligini oshirish (Topildiyev, 2023), shuningdek, iqtisodiyotning turdosh tarmoqlariga integratsiyasini

ta'minlashda konsalting xizmatlarini takomillashtirish lozim. Mazkur zaruratni birinchi navbatda paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatining quyidagi ustuvor yo'nalishlari bilan asoslantirishimiz mumkin:


- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari hamda paxta xomashyosini qayta ishlashning uzluksiz qiymatlar zanjirini o'zida aks ettiruvchi paxta-to'qimachilik klasterlari yaratildi;

- paxta xomashyosi va undan yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, chorva komplekslarida mahsuldorlikni oshirish va fermer xo'jaliklarining rentabelligini oshirishda ixtiyoriy kooperatsiyalar tuzish orqali qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining zamonaviy bozor muhitiga moslashuvchan tashkiliy tuzilmalari shakllantirildi;

- aholi va sanoat korxonalarining yuqori sifatli oziq-ovqat, sanoatning sifatli xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ekologik

toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarning mavjud ekanligi;

- paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida chorva mollarining ozuqa bazasini mustahkamlash, sug'oriladigan yerlar maydonlaridan unumli foydalanish (Aliyev, 2028), paxta-to'qimachilik klasterlari negizida tashkil etilgan chorva kompleksi va aholining chorva mollari va parrandalarni parvarish qilishni yaxshilash orqali ushbu tarmoqlarni ham barqaror rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimining ishlab chiqilganligi.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga agrokonsalting xizmatlari ko'rsatish modeli³⁵

Fikrimizcha, paxta-to'qimachilik klasterlarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish nafaqat tashkiliy, agrotexnik, ishlab chiqarish va boshqa chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish, balki agrar sohaning agrokimviy, agrobiologik yo'nalishlardagi yutuqlari, texnik-texnologik innovatsiyalarni joriy yetish va tegishli axborot bazasini shakllantirish orqali, shu bilan birga ilg'or bilimlarni ishlab chiqarishga joriy etishni ko'zda tutuvchi agrokonsalting xizmatlarini ko'rsatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Agrokonsalting xizmatlarini amalga oshirish quyidagi sub'ektlar tomonidan amalga oshiriliadi:

³⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

- dala maslahatchilari – klaster tarkibidagi fermer xo‘jaliklariga o‘zaro shartnoma asosida yoki mustaqil ravishda agroservis yo‘nalishida xizmatlar ko‘rsatuvchi yuqori malakali zootexniya, veterinariya, agronomiya sohasi mutaxassislar;

- agroservis konsultantlari – eng ilg‘or fermer xo‘jaliklari bilan o‘zaro tajriba-sinov va dala laboratoriya rejimida ish olib boruvchi, ilg‘or tajribalar bo‘yicha master-klass va seminarlar tashkil etuvchi mutaxassislar;

- agrokonsultant-menejer – yuqori malakali mutaxassislar va soha olimlarining uslubiy ishlanmalari, ilmiy va ta‘lim tashkilotlari bilan hamkorlikda innovatsiyalarni moslashtirish, ularni joriy etish metodologiyasini ishlab chiqish va tajriba-namoyish ob‘ektlarini tashkil etish ishlarni amalga oshiradilar (1-rasm).

Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda qishloq xo‘jaligida agrokonsalting xizmatlari ko‘rsatish ma‘lum darajada davlat tomonidan tartibga solish orqali amalga oshirimoqda, chunki ekologik standartlarga rioya qilish, qishloq joylarda aholi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan mahsulotlar ishlab chiqarish, ekinlarning kasallik, zararkunanda hamda hasharotlar bilan zararlanishiga qarshi biomahsulotlar va kimyoviy vositalarni qo‘llash, yem-xashaklarga qo‘shiladigan oqsil qo‘shimchalarni ishlab chiqarish (Xaydarov, 2024) da milliy va xalqaro standartlarga rioya qilish muhimdir. Shu bilan birga konsalting xizmatlari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish shakllarini ham rag‘batlantirish lozim (1-jadval).

1-jadval

Paxta-to‘qimchilik klasterlarida agrokonsalting xizmatlarini tashkil qilishning strategik yo‘nalishlari³⁶

Agrokonsalting yo‘nalishlari	Xizmat turlari
Iqtisodiy yo‘nalishdagi agrokonsalting xizmatlari	buxgalteriya hisobi, mulkiy masalalar, investitsiyalarni jalb qilish, agroaktivlarni sotish va harid qilish, ijara, arenda, lizing
Chorvachilik yo‘nalishidagi agrokonsalting xizmatlari	zootexniya, zooveterinariya, naslchilik,
Dehqonchilik yo‘nalishidagi agrokonsalting xizmatlari	suvni tejash texnologiyalari, resurs tejamkor texnika va innovatsion texnologik jarayonlar, tuproq unumdorligini tiklash, ekologiya, biologik, biodinamik, organik va adaptiv dehqonchilik, zararkunanda hamda hasharotlar bilan zararlanishiga qarshi biomahsulotlar va kimyoviy vositalarni qo‘llash
Raqamlashtirish yo‘nalishidagi agrokonsalting xizmatlari	“dala sensorlari”, iqlim stansiyalari, kuzatuv-tadqiqot dronlar, sun‘iy yo‘ldoshlar, sun‘iy intellekt tizimlarini qo‘llash hamda qishloq xo‘jaligida ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MMBT)ni joriy etish
Huquqiy yo‘nalishidagi agrokonsalting xizmatlari	er ajratish, ekin maydonini kengaytirish, ijara, arenda, lizing munosabatlarini huquqiy qo‘llab-quvvatlash
Tashkiliy yo‘nalishidagi agrokonsalting xizmatlari	biznes-rejalashtirish, startup loyihalar ishlab chiqish, agrar boshqaruv, agrar soha xodimlari malakasini oshirish, qo‘shilish va birlashtirish amaliyoti, klaster munosabatlarini takomillashtirish

Fikrimizcha agrokonsalting xizmatlarining asosiy vazifasi qishloq xo‘jaligida tomorqa egalari, dehqon-fermer xo‘jaliklarini zamonaviy agrotadbirlar va texnologiyalarga doir yangi bilim, malaka va o‘quvlarga o‘rgatish, ularning so‘rovlari asosida ma‘lumot, qarorlar qabul qilish va ularni ijrochilarga yetkazish, shuningdek nazoratga asoslangan ishlab chiqarish tizimlarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini safarbar qilishdan iborat bo‘lishi kerak.

³⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar.

Agrokonsalting – qishloq xo‘jaligida hosildorlik va chorva mahsuldorligiga erishishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turi hisoblanadi. Ilg‘or xorij amaliyotida fermer xo‘jaliklari, tomorqa egalari, shu jumladan qishloq aholisi uchun qishloq xo‘jaligi faoliyati turlari (veterinariya, qishloq xo‘jaligi, agronomiya va boshqalar) bo‘yicha agrokonsalting xizmatlarini tashkil etish orqali kasallik, zararkunanda hamda hasharotlar bilan zararlanishiga qarshi biomahsulotlar va kimyoviy vositalarni qo‘llash, sohani raqamlashtirish bo‘yicha agrokonsalting xizmatlari ko‘rsatish kengayib bormoqda.

Paxta-to‘qimchilik klasterlarida agrokonsalting xizmatlarini tashkil qilishning strategik yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni taklif etishimiz mumkin:

- biologik, biodinamik, organik va adaptiv dehqonchilik tizimlarini rivojlantirish, veterinariya-sanitariya xavfsizligi bo‘yicha startap loyihalarni ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

- chorvachilik, baliqchilik va parrandachilikda samarali ozuqa ratsionini ishlab chiqishni tashkil etish, chorvachilik ozuqa ratsionining iqtisodiy samaradorligini va maqsadga muvofiqligini ta‘minlash bo‘yicha konsalting xizmatlari ko‘rsatish.

- fermer (dehqon) xo‘jaliklari hamda qishloq aholisiga hosildor ekin navlarini, chorvachilik sanoatida mahsuldor zotlarni qo‘llash, naslchilikda zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash asosid hayvonlar va o‘simliklarning genetik salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha maslahatlar berish, tajribalarni o‘rgatish.

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining optimal sotish narxlarini shakllantirish, ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni faoliyatini davlat tomonidan soliqlar, subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlash, fermer (dehqon) xo‘jaliklari va qishloq aholisining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasidagi moddiy manfaatlari huquqiy va iqtisodiy himoya qilish, agrar soha xodimlari malakasini oshirish, agrar sohada kasbiy faoliyat nufuzini oshirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish.

- qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish borasida “dala sensorlari”, iqlim stansiyalari, kuzatuv-tadqiqot dronlar, sun‘iy yo‘ldoshlar, sun‘iy intellekt tizimlarini qo‘llash hamda qishloq xo‘jaligida ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MMBT)ni joriy etish, iqtisodiy samarasiz bo‘lgan an‘anaviy qishloq xo‘jaligi kasblarini robotlashtirish va avtomatlashtirish, sohada AT-dasturchilar, Internet texnologiyalari mutaxassislarining faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha maslahatlar berish.

- zamonaviy agrosanoat, resurs tejankor texnika va innovatsion texnologik jarayonlarni rivojlantirish asosida chorvachilik komplekslari va parrandachilik fermalarining iqtisodiy salohiyatini tiklash va rivojlantirish, dehqonchilik sohasining texnik-texnologik modernizatsiyasini rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ushbu tavsiyalarni amaliyotda qo‘llash paxta-to‘qimchilik klasterlarida agroservisni rivojlantirish, agrokonsalting xizmatlarini ko‘rsatish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Bergamaschi, M. (2012). *Agrishow: palco para a agricultura paulista. Agroanalysis FGV Magazine*, 32(6): 40-45.

Ibragimov G.A. (2023). *Agroxizmat korxonalarini va fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Berdaq nomidagi QDU, Nukus – 60 b.*

Tamuliene, Vilma & Raupeliene, Asta & Kazlauskienė, Egle. (2017). *Farmers' Preferences Selecting Agricultural Consulting Services. Montenegrin Journal of Economics*. 13. 79-87. 10.14254/1800-5845/2017.13-4.6.

Азизкулов Б.Х. (2019) *Пахтачиликда агротехник тадбирлар иқтисодий самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишлари. 08.00.04 - Қишлоқ хўжалиги*

иқтисодиёти Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, ТИҚХММИ. Тошкент, –56 б.

Алиев Я.И. (2018). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, агроресурслар ва агрохизматлар бозорларини ривожлантиришнинг илмий-амалий асосларини такомиллаштириш. 08.00.04-Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти Иқтисодиёт фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати, ТИҚХММИ. Тошкент, –81 б.

Демишкевич, Г.М. (2009) *Формирование и развитие системы сельскохозяйственного консультирования [Текст] / Г.М. Демишкевич. – М.: ФГУ РЦСК, – 296 с.*

Мицкевича А., Фрайдина М. (1999) *Консультации в сфере агробизнеса: учебное пособие [Текст] / под ред. А. Мицкевича и М. Фрайдина. – Щецин-Горки, – 95 с.*

Топилдиев, С. (2023). АГРАР СОҲАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎЛЛАРИ. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(2), 294–300. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/76>

Фармон (2023) *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қишлоқ хўжалигида эркин бозор муносабатларини янада ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” Фармони, 12.12.2023 йилдаги ПФ-205-сон*

Хайдаров, И. (2024). Пахта-тўқимачилик кластерларида экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтиришда диверсификациялаш стратегиясини қўллаш самарадорлиги. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(2), 661–664. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss2-pp661-664>

Холиқова Р.С. (2022) *Пахта-тўқимачилик ишлаб чиқаришини кластер асосида ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари. 08.00.03-Саноат иқтисодиёти (иқтисодиёт фанлари). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, ТТУ. Тошкент, –59 б.*